

**AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILAR
DUNYOQARASHINING SHAKLLANTIRISH MAZMUNI**

B.S.Siddiqov

Farg'ona davlat universiteti dotsenti., p.f.n.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aksiologik yondashuv asosida o'quvchilar dunyoqarashining shakllantirish mazmuni yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, aksiologiya, manaviyat, hayotiy, maishiy, texnik, ma'naviy-ilmii, axloqiy, estetik, diniy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy.*

Inson yaralibdiki, u yoki bu darajada ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan. Yovvoyilik davrida ham ba'zi insonlar insofli, o'ljani boshqalar bilan baham ko'radigan, ba'zilari esa faqat o'zini o'ylaydigan, xudbin ekanligini kinofilmlarda ham ko'ramiz. Demak, ma'naviyat tarixan konkret (aniq) xususiyatlarga ega ekan. U qadim zamonlardan to hozirgi kungacha dunyoning barcha xalqlari tomonidan yaratilgandir. Shu sababli har bir xalq va millatning o'ziga yarasha, o'ziga mos, o'ziga xos bo'lgan ma'naviyati bor. Ma'naviyat har bir xalqning ijtimoiy muhitiga bog'liq.

Ma'naviyat – kishilarning egallagan bilimlari, qadriyatlari, madaniyati, olgan bilimlarini hayotda qo'llay bilish kabi holatlar bilan belgilansa, ma'naviy va madaniy meros «tarixiy boylik singari» ajdodlar tomonidan avlodlarga qoldirilgan ma'naviy meros ichidan millatning shu kundagi hayotiga asqotib turgan qismidir. Ota-bobolarimizning boy ma'naviy va madaniy xazinasidan bizga faqat bir qismigina yetib kelgan. Ular ma'naviy yoki madaniy yodgorlik sifatida qadrlanadi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ularning har ikkalasi ham madaniyat ekanligini unutmazlik kerak. Negaki, inson faoliyatining mahsuli bo'lgan ko'pgina narsalar ham aqliy, ham ma'naviy, ham jismoniy mehnatning natijasi sifatida paydo bo'ladi. Shunday ekan, madaniyat taraqqiyoti o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlanadi. U yangi qadriyatlarni yaratish yo'lida tayanch vazifani o'taydi.

“Qadriyat” tushunchasi madaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biridir. Ayrim tadqiqotchilar uni davrning ehtiyojini belgilaydi, ya'ni tarixiy xususiyat kasb etadi deb hisoblasa, boshqa bir tadqiqotchi Rikert, aksincha, qadriyat doimiy, universal xususiyatga ega deb hisoblaydi. T. Parsonsning fikricha, qadr me'yoriy andozadir. Mazkur turli xil, hatto qarama-qarshi fikrlardan qadriyatning ma'nosi ko'p qirrali ekanligi anglanadi.

Moddiy nuqtai nazardan qadriyat hissiydir. U hayotiy, maishiy, texnik, qoniqish qadriyati, ma'naviy-ilmii, axloqiy, estetik, diniy va boshqalarga bo'linadi. Ayrim qadriyatlar (xo'jalik, texnik, siyosiy) tarixiy xususiyat kasb etadi, ya'ni madaniyat, davr o'zgarishi bilan ular ham o'zgarib turadi, boshqa qadriyatlar esa

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

doimiy, universal xususiyatga ega (axloqiy, badiiy)dir. Qadriyatlar ro'yxati har bir jamiyatning milliy va o'ziga xos sivilizatsiyasi bilan bog'liq holda keskin farqlanadi. Hamma davrlarda, barcha xalqlarda eng yuksak qadriyatlar ezgulik, hayo, mehnat, sevgi, haqiqat, baxt, singari mezonlarda ifodalangan.

Qadriyatlar amal qilish doirasiga ko'ra milliy, mintaqaviy va umuminsoniy turlarga bo'linadi.

Milliy qadriyatlarimiz istiqlol madaniyatini yaratishimizda negiz bo'lib xizmat qilmoqda. Bu hol milliy mafkuramizda ham o'z ifodasini topib, jamiyatimiz taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Qaysi mamlakatda bo'lmasin, jamiyatdagi yangilanish doimo madaniy merosning uyg'onishiga olib keladi.

Masalan, sho'rolar zamonida yaratilib, uning siyosatini targ'ib etgan, kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan yozilgan, endilikda o'z umrini yashab bo'lgan qancha-qancha asarlarni bugungi kun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyat sifatida qarab bo'lmaydi. To'g'ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qolish mumkin, xolos. Demak, madaniy merosning qadri bir umr tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar deyiladi. O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan milliy qadriyatlar qayta tiklanmoqda.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tili, tarixi, dini, urf-odat va an'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Umuminsoniy qadriyatlar mazmuni jihatidan chuqur va keng bo'lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishiga muvofiq keladi. Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imkoniyat ochiladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatimiz shu qadar ulkanki, merosimiz nafaqat o'z xalqimiz, balki Yevropa, Osiyo Arab mamlakatlarini ham o'ziga jalb qilib, qiziqish uyg'otmoqda va bu umuminsoniy qadriyatlarga qo'shilgan salmoqli hissadir. X—XI asrlarda Yevropa madaniyati hali uyg'onish pallasiga kirmagan paytdayoq bizning Sharq madaniyatimiz barcha jabhalarda yuqori cho'qqilarni zabt etdi.

Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli xil sohalarda qo'laniladi. Qadriyatlar to'g'risidani fan bu aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gertman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. G'arbda bu atama grekcha «qadriyat», «fan» va «ta'limot» tushunchalariga asoslanadi. Qadriyatni aksiologik nuqtai-nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmuni, obyektiv asosi va subyektiv jihatlarini, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Qadriyat kategoriyasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi. Qadriyatlar inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqeylikning shakllari, narsalar, voqealar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan kategoriyadir.

"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Ma'naviy madaniyat yoxud «ma'naviyat»ning yadrosini qadriyatlar tashkil etadi. Qadriyat alloqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida borlikning u yoki bu obyektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir. Qadriyatlar inson hayotida turli-tuman ehtiyojlar va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofida sodir bo'layotgan voqealarni, hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarni oddiy qilib ijobiy yoki salbiy (ahamiyatsiz, ahamiyati kamroq, qadr-qimmat sezilmaydigan), absalyut va nisbiy, obyektiv va subyektiv qadriyatlarga bo'lish mumkin. Mazmuniga qarab mantiqiy, etik, estetik va narsalar qadriyatlariga bo'lish mumkin. Shuningdek, qadriyatlarni haqiqat, ezgulik va go'zallikni ulug'lovchi qadriyatlarga ajratish mumkin.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham, qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyatga baho berganda konkret tarixiy shart-sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur.

Milliy qadriyatlarning negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayram-u sayllar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri-biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xosiyatlarni milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir.

Milliy qadriyatlarni tiklash – ularga hozirgi zamonga mos yangi mazmun ato etish demakdir. Xuddi shuning uchun ham, O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mamlakatimizga hozirgi zamon sivilizatsiyasi talablariga javob beruvchi umuminsoniy demokratik qadriyatlar xalqimiz turmush tarziga kirib kela boshladi. Inson haq-huquqlariga rioya qilish, tadbirkorlik erkinligi, matbuot erkinligi, ana shular jumlasidan edi. «Ushbu demokratik qadriyatlar jamiyatimiz uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida gapirar ekanmiz, bu qadriyatlar tarixiy jihatdan ham, etnik-madaniy jihatdan ham xalqimizning o'ziga xos xususiyatlariga zid emasligini qayta-qayta ta'kidlashni istardik».

Umuminsoniy demokratik qadriyatlarning eng muhimi – inson haq-huquqlari va erkinliklarini har tomonlama himoya qilishdir. Insoniyat tarixida Buyuk fransuz revolyutsiyasi (1789) qabul qilgan «Inson va grajdanlar huquqlari deklaratsiyasi», 1948-yilning 10-dekabrida BMT Bosh Assambliyasi tasdiqlagan «Inson huquqlarining eng umumiy deklaratsiyasi» - inson haq-huquqlari va erkinliklarini

himoya qilishga qaratilgan tarixiy hujjatlar edi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishishi bilan mustabid tuzum sharoitida oyoq osti qilingan inson haq-huquqlari va erkinliklarini tiklash, uni himoya qilishga kirishdi. Insonning asosiy huquqlari va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi asosiy qonuni – Konstitutsiyaning umumiy qoidalarida huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Shuningdek, demokratiya, barqarorlik, oshkorlik, tinchlik, hamkorlik kabi umuminsoniy qadriyatlarning rivoj topishi uchun ham imkon yaratildi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashib borayotganligini, mustaqillik yillarida O'zbekistonda vujudga kelgan-fuqarolarni tinch, totuv yashashga, barqarorlikka intilishida ham yaqqol ko'rish mumkin. Endilikda tinchlik, millatlararo totuvlik, barqarorlik O'zbekistonda yashovchi barcha xalqlarni, millatlarni, elatlarning buyuk ijtimoiy-siyosiy qadriyatiga aylanmoqda. Jahon sivilizatsiyasining talablariga mos tushuvchi bunday qadriyatlarni shakllanishida va rivojlanishida, kishilar turmush tarzida mustahkam o'rnashib olishida mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bir qator xayrli tadbirlar turtki bermoqda.

Yuqoridagi fikrlarimizdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Qadriyat alloqanday hodisa, voqea yoki narsaning o'ziga xos xususiyati yoki xossasi emas, balki uning mohiyati, o'z navbatida borliqning u yoki bu obyektining yashashi, mavjud bo'lib turishi uchun tom ma'nodagi zaruriy shartidir.
2. Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin.
3. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyatlar esa barcha millat vakillariga xos bo'lgan qadriyatlarni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son farmoni "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" Toshkent shahri, 2017-yil 5-iyul.
2. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari" to'g'risidagi qonun. 1991-yil.
3. Javliyev T. An'analar – hayot sabog'i. – T.: «O'zbekiston», 1998. – 90-bet
4. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: «O'qituvchi», 1996. 189-bet.

5. Hasanboyev J va boshqalar. Pedagogika (o'quv qo'llanma). – T.: «Fan», 2006 – 252-bet.
6. Q. Abdullayeva, M.Yusupova, S.Rahmonbekova “Odobnoma” 2-sinf. Toshkent. 2007-yil.
7. Saidkulovich, S. B. (2023). CONCEPT AND STRUCTURE OF WORLD VIEW IN MODERN SOCIETY. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 8(4), 35-37.
8. Saidkulovich, S. B. (2023). AXIOLOGICAL APPROACH IN PROFESSIONAL EDUCATION OF STUDENTS. *British View*, 8(3).
9. Saidkulovich, S. B. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(4), 30-33.
10. <https://uzsmart.uz/library/down.php?id=965>
11. <https://uza.uz/oz/posts/qadriyatlar-qadri-17-05-2020>
12. <https://fayllar.org/mavzu-tarbiya-jarayonida-milliy-qadiryatlarni-orni.html>

